

## **KUCHLI TA'SIR ETUVCHI ZAHARLI MODDALAR BILAN BOG'LIQ FAVQULODDA VAZIYATLAR OQIBATLARINI BARTARAF ETISH**

**Isoqov Abdurashid Qutbiddinovich  
Namangan viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi  
Hayot faoliyatini xavfsizligini o'qitish markazi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Kimyoviy avariya – bu kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarining odamlarning hayoti va sog'ligiga, biosferaga xavf tug'diradigan miqdorda atmosferaga chiqishiga olib keluvchi ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarning buzilishi, quvurlar, sig'imlar, kimyoviy moddalar saqlanadigan omborlar va kimyoviy zaharli moddalarini tashuvchi transport vositalarining shikastlanishidir [1].

**Kalit so'zlar:** zilzila, suv toshqini, avariya, portlovchi, zaharli

**Abstract:** A chemical accident is a violation of technological processes in production, pipelines, tanks, chemical storage warehouses and chemical toxic substances, leading to the release of highly toxic substances into the atmosphere in quantities that pose a threat to human life and health, the biosphere. is damage to transport vehicles [1].

**Key words:** earthquake, flood, accident, explosive, toxic  
**Аннотация:** Химическая авария – это нарушение технологических процессов на производстве, трубопроводах, резервуарах, складах хранения химикатов и химических токсичных веществ, приводящее к выбросу высокотоксичных веществ в атмосферу в количествах, создающих угрозу жизни и здоровью человека, биосфера – повреждение транспортных средств [1].

**Ключевые слова:** землетрясение, наводнение, авария, взрывчатое вещество, токсичное вещество.

Kimyoviy avariya ko'pincha, kimyo, neftni qayta ishlovchi, sanoat, qog'oz ishlab chiqarish sanoati, go'sht-sut, oziq-ovqat, metallurgiya, konchilik va boshqa sanoat korxonalarida tez-tez uchraydi. Ularda xlor, ammiak, fosgen, sinil kislotasi, oltingugurt oksidi kabi kimyoviy xavfli moddalarining yirik zahiralari mavjudligi sababli, ushbu ob'ektlar kimyoviy avariya manbai hisoblanadi [2].

**Quyidagi omillar sababli** ushbu ob'ektlarda avariylar yuzaga kelishi mumkin [3]: tabiiy ofatlar oqibatida (zilzila, suv toshqini va boshqalar); inshootlarni loyihalash yoki uni qurishda yo'l qo'yiladigan xatoliklar tufayli; uzoq muddat ishlatilgan ishlab chiqarish vositalarining eskirishi, avariya holatiga kelishi; kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalaridan foydalanish, saqlash va tashishning ortishi; agressiv moddalarini (portlovchi, tez alangalanuvchi zaharli moddalarini) noto'g'ri saqlanishi va uni ishlatish qoidalarining buzilishi; korxonada mehnat intizomi past, mutaxassis va ishchilarining malakasi yetarli emasligi; kimyoviy xavfli obyektlar holatining yetarli darajada nazorat qilinmasligi; chetdan olib kelingan texnologiyalar xavfsizlik talablariga to'liq javob bermasligi; moddalar bilan ishlashda, ularni saqlashda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar sababli avariylar sodir bo'lishi kuzatilib, oqibatda insonlar jabrlanadi va moddiy boyliklarga zarar yetadi. Avariya bartaraf etilgandan so'ng, zaharlovchi moddaning xususiyatiga qarab, ma'lum bir vaqt mobaynida avariya o'chog'ida xizmat qilgan va zaharlangan hududda qolgan odamlar tibbiy nazorat ostida bo'lishadi.

**Kimyoviy avariya paytida harakat qilish [4].** «Diqqat, barchaga!» signali berilganda avariya to‘g‘risida aniq ma’lumot va to‘g‘ri harakat qilishga doir tavsiyalarni olish uchun radiopriyomnik va televizorni ishlatib qo‘yish kerak. Derazalarni berkitib, elektr va gaz tarmog‘ini o‘chirish, rezinali etik, splash kiyib, hujjatlar, kerakli kiyim-kechak, uch kecha-kunduzlik oziq-ovqat olib, qo‘snilarni ogohlantirib, tezda vahima ko‘tarmasdan, zararlangan hududdan shamol yo‘nalishiga perpendikulyar yo‘nalishda harakatlanish lozim. Bunda kamida 1,5 km masofa nariga borib olish, nafas yo‘llarini asrash uchun gazniqobdan, agar u yo‘q bo‘lsa 2-5 % li ichimlik soda eritmasida (xlordan saqlanish uchun), 2 foizli limon yoki uksus kislotasi eritmasida (ammiakdan saqlanish uchun) namlangan paxta-dokali bog‘lamdan yoki matolardan tayyorlangan qo‘lbola muhofaza vositasidan foydalanish ham mumkin.

Zaharli hududni tark etish imkon bo‘limganda eshik derazalar, shamollatish tuyuklari va dudbo‘ronlarni zikh yopish talab etiladi. Ularda yoriqlar bo‘lsa qog‘oz yoki skotch bilan yopishtirish kerak. Binolarning yerto‘la, yarim yerto‘lalari va birinchi qavatlariga berkinmaslik lozim.

**Kimyoviy avariyanan so‘ng harakat qilish [5].** KTZMdan zaharlanish shubxasi tug‘ilsa barcha jismoniy ishlarni chetga surib, ko‘p miqdorda ichimlik (choy, sut) ichish va zudlik bilan shifokorga murojaat qilish lozim. Binoga kirish uchun faqatgina unda KTZMning mavjudligi borasida nazorat tekshiruvi o‘tkazilgandan so‘nggina ruxsat beriladi. Agar kishi KTZMning bevosita ta’siriga tushib qolgan bo‘lsa birinchi navbatda dush qabul qilish kerak. Kiyim-kechaklarni yuvish, yuvishning iloji bo‘lmasa tashlab yuborish lozim. Xonalarni teztez nam lattada tozalash lozim. Suv quvurlari (quduqlar)dagи suvdan ichmaslik, tomorqa ekinlari va mevalari, shuningdek, kimyoviy avariyanan keyin so‘yilgan chorva mollari va qushlar go‘shtlarini ularning xavfsiz ekanligi rasman aniqlanmagunicha iste’mol qilmaslik tavsija etiladi.

**Avariya oqibatlarini bartaraf etish [6].** Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog‘liq bo‘lgan ob’ektlarda avariya va halokatlar oqibatlarini bartaraf etishda avariya-qutqaruв va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni tashkil etish, o‘z vaqtida va sifatlari razvedka ishlarini olib borish muhim ahamiyatga egadir. Razvedka ishlari shamol yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladi. Gazlarning atrof-muxitga tarqab ketishini oldini olish uchun suv pardalari hosil qilinadi va shu yo‘l bilan gazlarni cho‘ktirish va neytrallash ishlari olib boriladi. KTZMni zararsizlantirish (degazatsiya) asosiy qismi maxsus mexanizmlar, mashinalar yordamida eritmalar sepish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Jabrlanganlarni yig‘ish punkti KTZM to‘kilgan joydan shamol esayotgan tomonda joylashgan bo‘lib, KTZM bug‘laridan holi joyda bo‘lishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagи “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 28-sentabrdagi “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. Abidova F.A., Abidov A.B. “Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning xususiyatlari”. - O‘zR FVV FMI: 2013 y. – 530 b.
4. Sevastyuk T.V. “Silnodeystvuyushie yadoviytie veshchestva i zaщитa ot nix”. - M.: Voenizdat, 1989 g.
5. Turagalov T.J., Ilyosova Z.F. “Favqulodda vaziyatlar”. (qisqacha ruscha-o‘zbekcha ensiklopedik izohli lug‘at). – T.: FMI. 2016 y. – 220 b.
6. Sharipov A.X. “Kimyoviy xavfli obyektda va temir yo‘l transportida kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarni saqlash”, uslubiy qo‘llanma. Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti, 2010 y. - 23b.